

**BO'LAJAK TARBİYACHILARDA KASBIY NUTQ ETIKETINI
RIVOJLANTIRISHNING METODIK TIZIMI****Temirova Nargiza Davlat qizi**

Navoiy davlat universiteti

70110201-Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi mutaxassisligi 1-bosqich magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20383567>

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy nutq etiketini rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslari tahlil qilinadi. Pedagogik muloqot jarayonida nutq etiketi muhim omil sifatida qaralib, uni shakllantirishga qaratilgan metodik tizim ishlab chiqilgan. Tadqiqot davomida interfaol metodlar, nutqiy mashqlar va kommunikativ vaziyatlardan foydalanishning samaradorligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: kasbiy nutq etiketi, pedagogik muloqot, tarbiyachi, nutq madaniyati, kommunikativ kompetensiya, metodik tizim.

Аннотация. В данной статье анализируются теоретические и практические основы формирования профессионального речевого этикета у будущих воспитателей.

Речевой этикет рассматривается как важный компонент педагогического общения, а также предлагается методическая система, направленная на его развитие. В ходе исследования обосновывается эффективность использования интерактивных методов, речевых упражнений и коммуникативных ситуаций в образовательном процессе.

Ключевые слова: профессиональный речевой этикет, педагогическое общение, воспитатель, культура речи, коммуникативная компетентность, методическая система.

Abstract. This article analyzes the theoretical and practical foundations of developing professional speech etiquette in future preschool teachers. Speech etiquette is considered as an essential component of pedagogical communication, and a methodological system aimed at its formation is proposed. The study substantiates the effectiveness of using interactive methods, speech exercises, and communicative situations in the educational process.

Keywords: professional speech etiquette, pedagogical communication, preschool teacher, speech culture, communicative competence, methodological system.

Bolalarda nutq rivojlanishini rag'batlantiruvchi yoki unga to'sqinlik qiluvchi kuchlarni aniqlash ushbu jarayonga aniq maqsadni ko'zlagan holda pedagogik ta'sir ko'rsatishni tashkil etish kalitidir [1].

Zamonaviy jamiyatda ta'lim tizimining rivojlanishi pedagog shaxsiga bo'lgan talablarni tubdan o'zgartirmoqda. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim tizimi inson shaxsining dastlabki shakllanish bosqichi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu bosqichda faoliyat yurituvchi tarbiyachining kasbiy saviyasi, nutq madaniyati va muloqot etikasiga rioya qilishi bolalarning ijtimoiy va nutqiy rivojlanishida hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Tarbiyachining nutqi nafaqat axborot uzatish vositasi, balki tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning muhim instrumentidir. Bolalar ko'proq taqlid orqali o'rganishi sababli, tarbiyachining nutqiy xulqi ularda nutq madaniyatining shakllanishiga bevosita ta'sir qiladi. Shu bois bo'lajak tarbiyachilarni tayyorlash jarayonida ularning kasbiy nutq etiketini rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri sifatida qaralishi zarur.

Nutq odob-axloqi shaxsiy va professional hayotda muhim rol o'ynaydi. Bu boshqalarning bizni qanday qabul qilishiga va o'zimizni qanchalik samarali ifoda eta olishimizga ta'sir qiladi.

Yaxshi nutq odob-axloqi xushmuomala tildan foydalanish, faol tinglash, jarangdor yoki haqoratli so'zlardan qochish va og'zaki va og'zaki bo'lmagan muloqot orqali hurmat ko'rsatishni o'z ichiga oladi [2].

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ko'plab talabalarda nazariy bilimlar mavjud bo'lsa-da, real pedagogik vaziyatlarda nutqiy muloqotni to'g'ri tashkil etishda qiyinchiliklar yuzaga keladi.

Bu esa nutq etiketini shakllantirishga qaratilgan metodik yondashuvlarning yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi bilan izohlanadi.

Bugungi kunda pedagogik oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak tarbiyachilarni tayyorlash jarayonida ularning kasbiy nutq etiketini rivojlantirish yetarli darajada tizimli yo'lga qo'yilmaganligi kuzatiladi. Bu esa kelajak mutaxassislarining pedagogik faoliyatida kommunikativ qiyinchiliklar yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Shu nuqtai nazardan, kasbiy nutq etiketini rivojlantirishning samarali metodik tizimini ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

Kasbiy nutq etiketi — bu pedagogning kasbiy faoliyati davomida nutq orqali amalga oshiriladigan muloqot jarayonida amal qilinadigan axloqiy-me'yoriy qoidalar tizimidir. U pedagogning umumiy madaniyati, kasbiy saviyasi va kommunikativ kompetensiyasining muhim ko'rsatkichi hisoblanadi.

Kasbiy nutq etiketi quyidagi asosiy jihatlarni qamrab oladi:

- muloqotda hurmat va e'tiborning ustuvorligi;
- nutqning aniqligi, ravonligi va ifodaliligi;
- vaziyatga mos kommunikativ strategiyalarni tanlash;
- ijobiy psixologik muhit yaratish;
- etik normalarga qat'iy rioya qilish.

Mazkur komponentlar pedagogik muloqot samaradorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Interfaol metodlar talabalarni faol ishtirokchi sifatida jalb etib, ularning nutqiy faolligini oshiradi. Ayniqsa, real hayotga yaqinlashtirilgan pedagogik vaziyatlar orqali o'tkaziladigan mashg'ulotlar talabalarning nutq erkinligini rivojlantiradi, ularda mustaqil fikrlash va tezkor qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Masalan, "Rolga kirish" metodida talabalar turli pedagogik vaziyatlarda tarbiyachi rolini bajarib, bolalar bilan muloqot qilishni mashq qiladilar.

Bu esa nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lash imkonini beradi.

Metodik tizimni amalga oshirish mexanizmi — bu bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy nutq etiketini shakllantirish jarayonini tartibli, izchil va maqsadga yo'naltirilgan holda tashkil etish usulidir. Ya'ni bu mexanizm orqali ta'lim jarayoni qanday bosqichlarda olib borilishi va qanday natijaga erishilishi belgilanadi.

Nazariy jihatdan ushbu mexanizm bir-biri bilan uzviy bog'langan bir necha asosiy jarayonlardan iborat bo'ladi:

1. Maqsadga yo'naltirilganlik

Har qanday metodik tizim aniq maqsad asosida quriladi.

Bu yerda asosiy maqsad — bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy nutq etiketini shakllantirishdir. Maqsad ta'lim jarayonining yo'nalishini belgilab beradi va barcha faoliyat shu maqsadga xizmat qiladi.

2. Mazmuni tanlash va tizimlashtirish

Metodik tizimda o'rgatiladigan bilimlar oldindan rejalashtiriladi. Bu bosqichda nutq etiketi bilan bog'liq: muloqot qoidalari, etik me'yorlar, nutqiy vaziyatlar tizimli ravishda joylashtiriladi. Nazariy jihatdan bu jarayon bilimlarni oddiydan murakkabga qarab o'rgatish tamoyiliga asoslanadi.

3. Faoliyatni tashkil etish

Bu bosqichda olingan bilimlar amaliy faoliyatga aylantiriladi. Talabalar mashqlar bajaradi, vaziyatlarni hal qiladi, nutq orqali muloqot qiladi. Shu orqali bilimlar mustahkamlanadi.

4. Kommunikativ muhit yaratish

Metodik tizim samarali bo'lishi uchun darsda erkin va ijobiy muhit bo'lishi kerak. Talaba erkin gapira olishi, xatodan qo'rqmasligi fikrini bemalol bildira olishi zarur. Bu muhit nutq etiketining tabiiy shakllanishiga yordam beradi.

5. Refleksiya (o'z-o'zini tahlil qilish)

Talaba o'z nutqini baholaydi: qanday gapirdi, qayerda xato qildi, qanday yaxshilash mumkin. Bu jarayon orqali u o'z ustida ishlashni o'rganadi.

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy nutq etiketini rivojlantirish ta'lim jarayonining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur jarayonni samarali tashkil etish uchun uni aniq metodik tizim asosida olib borish zarur.

Taklif etilgan metodik tizim maqsad, mazmun, faoliyat va baholash bosqichlarining o'zaro uyg'unligiga asoslanib, talabalarda nutq madaniyati, muloqot ko'nikmalari hamda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga xizmat qiladi. Natijada bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy faoliyatida etik, aniq va samarali nutqdan foydalanish darajasi oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Babayeva D.R. Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi. Toshkent, 2018.
2. Berdinazarova M. Sadritdinova M. Speech etiquette as a component of the cultural minimum.
3. Qudratov.T. Nutq madaniyati asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1993
4. Qodirova F.R. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
5. Richards J.C. Communicative Language Teaching Today. – Cambridge University Press, 2015.
6. Т.В. Мишаткина. Я. С. Яскевич. — Минск: Вышэйша школа, 2017. —334с.